

“Uzbekistan Helicopters” MCHJ tijorat maqsadlarida foydalanish uchun yangi vertolyotlar taqdimotini o‘tkazdi

2021 31 Iyul

2021-yil 31-iyul kuni “Uzbekistan Helicopters” MCHJ UAT samolyot-ta’mirlash majmuasida AIRBUS H-125 va MI-8MTV vertolyotlari taqdimotini o‘tkazdi. Bu haqda “Uzbekistan Airways” AJ axborot xizmati xabar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev turizm infratuzilmasini rivojlantirish loyihalari taqdimotlari bilan tanishar ekan, mamlakatimiz hududlarining transport logistikasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanini, bu yurtimizning sayyohlik salohiyatini oshirishga imkon berishini bir necha bor ta’kidladi. Shu munosabat bilan sotib olingan yangi vertolyotlar davlat rahbari tomonidan belgilangan ichki turizmni rivojlantirish vazifalarini samarali hal etish imkonini berish bilan bir qatorda, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga ham xizmat qiladi.

Tadbirning rasmiy dasturida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazi bilan yaqindan hamkorlik qiluvchi “Uzbekistan Helicopters” MCHJ faoliyati ham namoyish etildi.

“Uzbekistan Helicopters” aerovizual parvozlari (aerofoto va vide suratga olish) bo‘yicha xizmatlarni taqdim etadi, shuningdek, eng murakkab qurilish loyihalarining montaj ishlarini bajarish, yirik gabaritli yuklarni tashish, tog‘larga turistik ekskursiya parvozlarni va O‘zbekistonning tarixiy shaharlari bo‘ylab yo‘lovchilarni tashishni ham amalga oshiradi. Ta’kidlash joizki, Uzbekistan Helicopters jamoasi uchun parvozlari xavfsizligi ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Buning uchun tashkilotda professional uchuvchilar va muhandis-texnik tarkib shakllantirilgan, moddiy-texnik baza muntazam ravishda modernizatsiya qilib borilmoqda.

Masalan, H125 vertolyoti yuqori baland tog‘ va issiq iqlim sharoitlarida ekspluatatsiya qilishga moslashtirilgan va tashqi ilgakka osgan holda 1400 kg.gacha yukni olib keta oladi. Aviatransport shuningdek kuzatuv-qutqaruv operatsiyalarini

amalga oshirish, yirik yong'in maydonlarini o'chirish, yuklarni ko'tarish, hosilni changlatish, elektr uzatish tarmoqlarini yuqoridan kuzatish, aerovideo tasvirga olish, parashyutda sakrash, geologik qidiruv va h.k. kabi keng ko'lamli vazifalarda samarali qo'llaniladi.

Bugungi kunda "Uzbekistan Helicopters" MCHJ uchuvchilari muhandislar va texniklar bilan hamkorlikda yangi AIRBUS H-125 va MI-8MTV-1 vertolyotlarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha tajriba va malakalarini mustahkamlashmoqda. AIRBUS H-125 da parvoz qilish sifati va shunday xizmatning mavjudligi yaqin istiqbolda mamlakatda ichki turizmni rivojlantirish, aholining mobilligini oshirishga imkon berishi kutilmoqda.

Tadbir doirasida turizm sohasi vakillari, OAV va blogerlar to'rtta yangi vertolyot bilan yaqindan tanishdilar va Toshkent-Beldersoy-Amirsoy-Chimgan yo'nalishi bo'ylab maxsus tanishuv parvozini amalga oshirdilar.

Telegram: t.me/uzbekistanairways